

## XOTIN-QIZLAR UCHUN DAVRA SUHBATI



Qo'shtepa tumanidagi 4-sektor shtabida Xo'jaqishloq, Xalqobod mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qilayotgan 24 nafar muammoli, huquqiy maslahatga muhtoj bo'lgan xotin-qizlar uchun ularning muammollarini o'rganish, haq-huquqlarini himoya qilish, huquqiy savodxonligini, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida davra suhbati o'tkazildi.

Tadbirda tuman hokimining Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahatchisi M.Mo'ydinova, viloyat "Mexrjon" Ayollar va Bolalar markazi tomonidan tashkil qilingan yuridik markazi huquqshunosi Sh.Abdurazzoqovalar ishtirok etdi.



Muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish jamiyatda o'z o'rinnlarini topishlariga ko'mak berish, zo'ravonlik va tayziqlardan ximoya qilish, gender tengligi masalalarida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida sodda haqchil tilda ma'lumot va tushunchalar berildi.

Ishtirokchilarning ijtimoiy nafaqa, imtiyozli uy-joy olish, mulkiy nizolar, oilaviy kelishmovchiliklar masalasidagi so'rovlari eshitilib, soha mutaxassislari tomonidan huquqiy maslahatlar va tavsiyalar berildi.

### QO'SHTEPA TUMANI HOKIMLIGI

[\*\*Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating\*\*](#)

[Facebook](#)

2021-07-06 15:19:22